

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

Oldingi tahrirga qarang.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI HUZURIDAGI ATOM
ENERGETIKASINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI
TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

(qaror nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-iyuldagi PF-5484-son Farmonini va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2018-yil 19-iyuldagi PQ-3870-son qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Oldingi tahrirga qarang.

1. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

2. Belgilansinki:

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda “O‘zatom” agentligi deb ataladi) o‘z faoliyatini boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi hamda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tarkibiga kiradi;

(2-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

“O‘zatom” agentligining rahbarlik lavozimlariga va konsultantlar sifatida jalb etiladigan yuqori malakali xorijiy mutaxassislarining ish haqi, unga yuklangan vazifalarni bajarish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda belgilanadi va “O‘zatom” agentligining Atom energetikasini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lanadi;

“O‘zatom” agentligining xodimlari mehnatga haq to‘lash sharoitlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari va notarial idoralar xodimlari mehnatiga haq to‘lashning tarif setkasini joriy etish to‘g‘risida” 1996-yil 12-apreldagi 147-son qaroriga **3-ilovada** ko‘rsatilgan vazirliklar va idoralarning markaziy apparatlari xodimlariga, ijtimoiy-maishiy va tibbiy xizmat ko‘rsatish sharoitlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati xodimlariga tenglashtiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi “O‘zatom” agentligi buyurtmanomalariga binoan, unga yuklangan vazifalarni amalga oshirish doirasida jalb etiladigan xorijiy mutaxassislariga kirish vizalari rasmiylashtirilishini konsullik yig‘imlari va boshqa yig‘imlar undirilmasdan ta‘minlasin.

Oldingi tahrirga qarang.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi “O‘zatom” agentligining buyurtmanomalariga binoan, unga yuklangan vazifalarni amalga oshirish doirasida jalb etiladigan xorijiy mutaxassislariga ko‘p martalik vizalarning berilishi va muddati uzaytirilishini, shuningdek, vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishi va uning uzaytirilishini davlat boji undirilmasdan ta‘minlasin.

(4-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-sentabrdagi 593-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.09.2020-y., 09/20/593/1340-son)

5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi “O‘zatom” agentligining buyurtmanomalariga binoan, unga yuklangan vazifalarni bajarish uchun respublikaga jalb etiladigan xorijiy mutaxassislariga ruxsatnomalar berilishini (muddati uzaytirilishini), shuningdek, jalb etiladigan xorijiy mutaxassislariga O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga tasdiqnomalarning berilishini (muddati uzaytirilishini) ta’minlasin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [2-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga qo‘shimchalar kiritilsin.

7. Vazirliklar va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisi A.S.Sultanov va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori J.T.Mirzamahmudov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 13-avgust,
653-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-avgustdagi 653-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi to‘g‘risida

NIZOM

(nizom nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

1 bob. Umumiy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining (keyingi o‘rinlarda “O‘zatom” agentligi deb ataladi) maqomi, funksiyalari, vazifalari, huquqlari, tashkiliy asoslari va majburiyatlarini belgilaydi.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2. “O‘zatom” agentligi atom energetikasini rivojlantirish va undan foydalanish sohasida yagona davlat siyosati va strategik yo‘nalishlari amalga oshirilishi uchun mas’ul davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

(2-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(2-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 397-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2019-y., 09/19/397/3123-son)

3. “O‘zatom” agentligi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasiga](#) va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. “O‘zatom” agentligining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

5. “O‘zatom” agentligi davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida g‘azna hisob raqamlariga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga ega bo‘ladi.

6. “O‘zatom” agentligining rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

Oldingi tahrirga qarang.

to‘liq — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi;

(6-band “a” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

qisqartirilgani — “O‘zatom” agentligi;

b) ingliz tilida:

Oldingi tahrirga qarang.

to‘liq — Agency for the Development of Nuclear Energy under the Ministry of energy of the Republic of Uzbekistan;

(6-band “b” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

qisqartirilgani — Agency “Uzatom”;

v) rus tilida:

Oldingi tahrirga qarang.

to‘liq — Agentstvo po razvitiyu atomnoy energetiki pri Ministerstve energetiki Respubliki Uzbekistan;

(6-band “v” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

qisqartirilgani — Agentstvo “Uzatom”.

7. “O‘zatom” agentligining joylashgan joyi (pochta manzili):

Toshkent shahri, Oybek ko‘chasi, 26/1.

2-bob. “O‘zatom” agentligining asosiy vazifalari va funksiyalari

8. Quyidagilar “O‘zatom” agentligining atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish sohasidagi asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari hisoblanadi:

atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha takliflarni, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar ishlanmalarini tayyorlash;

O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni atom energetikasi sohasida loyihalarni amalga oshirish uchun jalb etish;

sanoat va ekologik xavfsizlikning xalqaro talablariga muvofiq bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalarini joriy etgan holda atom energetikasi obyektlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish bo‘yicha bitimlar va shartnomalar tuzish;

atom ilm-fani va yadro texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni, fundamental tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, tajriba-konstruktorlik va innovatsion ishlar loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish;

tadqiqiy va energetik atom reaktorlarini, yadro-fizika qurilmalarini, yadro materiallari va radiatsiya manbalarini saqlash, radioaktiv chiqindilarni ko'mish punktlari rivojlantirilishini va xavfsiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda yadro avariylarining va radiatsion avariya vaziyatlarining oldini olish bo'yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqqan holda respublikaning radiatsiya va yadro xavfsizligi obyektlari tizimini takomillashtirish;

yadro materiallari va texnologiyalarining, radioaktiv materiallarning tarqatilmasligini, jismoniy himoya hamda yadro va radiatsiya xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash;

kadrlarni, shu jumladan, yetakchi xorijiy institutlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil etish;

Xalqaro atom energetikasi agentligi, Atom energetikasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni va o'zaro hamkorlikni amalga oshirish;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda atom energetikasi sohasidagi xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar, kompaniyalar va banklar bilan atom energetikasi sohasiga xorijiy investitsiyalarni va ilg'or texnologiyalarni jalb etish maqsadida hamkorlikni rivojlantirish.

9. "O'zatom" agentligi atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish sohasida qo'yilgan vazifalarni bajarish doirasida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

atom energetikasidan foydalanish, shu jumladan, ilmiy-texnika va investitsiya siyosati sohasida davlat siyosatini shakllantirish, atom energetikasi, yadro ilm-fani va texnologiyalari obyektlarini rivojlantirish va xavfsiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

atom energetikasidan va yadro texnologiyalaridan tinchlik maqsadlarida foydalanish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi va belgilangan tartibda kiritadi;

radiatsiya, yadro, sanoat va ekologik xavfsizlikning xalqaro talablariga muvofiq bo'lgan zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalarni joriy etgan holda atom energetikasi obyektlarini qurish va ulardan foydalanish bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqadi;

ushbu sohadagi o'rta muddatli va uzoq muddatli dasturlar doirasida tinchlik maqsadlarida atom energetikasi obyektlarini qurish bo'yicha har yillik ishlar rejalarini ishlab chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va boshqa idoralar bilan birgalikda atom energetikasi sohasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish bo'yicha fundamental tadqiqotlar, ilmiy-qidiruv, tajriba-konstruktorlik va innovatsion ishlar loyihalarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda tarmoqni rivojlantirishning har yilgi, o'rta muddatli va uzoq muddatli dasturlari doirasida atom energetikasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasida mavzuli ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish, yadro va radiatsiya xavfsizligi, yadro materiallari va radioaktiv moddalar bilan ish olib borish sohasida o'z vakolatlari doirasida norma va qoidalarni ishlab chiqadi;

atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish sohasida kadrlar tayyorlashni, yetakchi xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

yagona kadrlar siyosati amalga oshirilishini ishlab chiqadi va ta'minlaydi hamda "O'zatom" agentligi, idoraviy mansub muassasalari xodimlari mehnatiga ish haqi to'lash va ularni ijtimoiy muhofaza qilish tizimini shakllantiradi;

alohida zararli (radioaktiv va boshqa) sharoitlarda ishlarni olib borganlik uchun qo'shimcha haq miqdorlarini belgilash bo'yicha takliflarni asoslaydi va ishlab chiqadi, tarmoqda mehnatni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtiradi.

3-bob. "O'zatom" agentligining huquqlari va javobgarligi

10. "O'zatom" agentligi o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida, shu jumladan, boshqa davlat organlari bilan birgalikda, davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish masalalarida davlat, xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini belgilangan tartibda muvofiqlashtirish;

“O‘zatom” agentligi vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan materiallar va ma‘lumotlarni davlat va xo‘jalik organlaridan, korxonalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rash va olish;

“O‘zatom” agentligi vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha zarur statistik axborotlarni davlat statistika organlaridan tekin olish;

atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasida bajariladigan davlat va tijorat loyihalari hamda dasturlarida ishtirok etish;

“O‘zatom” agentligi vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha kengashlarni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va mutaxassislarini jalb etgan holda belgilangan tartibda tashkil etish;

atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasida kadrlar tayyorlash va xodimlar malakasini oshirish uchun idoraviy ilmiy va o‘quv markazlarini, xo‘jalik hisobidagi konsultatsiya va axborot markazlarini belgilangan tartibda tashkil etish;

atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasidagi joriy va strategik vazifalarni yoritish uchun noshirlik faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirish va matbuot organlarini ta‘sis etish;

“O‘zatom” agentligi mol-mulkini o‘z tashkiliy tuzilmasi diorasida bepul foydalanish huquqi bilan bir bo‘linmadan boshqasiga belgilangan tartibda berish;

binolarga xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish, inventarlardan va xo‘jalik buyumlaridan, avtotransport, aloqa vositalari, hisoblash, kompyuter va tashkiliy texnikani saqlash va ulardan foydalanish, dasturiy ta‘minot vositalarini xarid qilish bo‘yicha ishlarni bajarish yuzasidan belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq “O‘zatom” agentligining ijtimoiy infratuzilmasini tashkil etish va takomillashtirish, “O‘zatom” agentligi xodimlari mehnatini rag‘batlantirishning yagona tizimini shakllantirish;

“O‘zatom” agentligi xodimlarini, ular tomonidan tegishli sohadagi ular faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha parametrlarining bajarilishini hisobga olgan holda moddiy rag‘batlantirish tartibi, miqdori va shartlarini belgilash;

“O‘zatom” agentligi vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga kiritish;

“O‘zatom” agentligi vakolatiga taalluqli bo‘lgan masalalar bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda, xalqaro va xorijiy tashkilotlarda, forumlar va maydonchalarda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini belgilangan tartibda ifodalash;

“O‘zatom” agentligi faoliyati sohasiga kiritilgan masalalarni ishlab chiqish uchun ilmiy va boshqa tashkilotlarni, olimlar va mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

atom energetikasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va atom energetikasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro shartnomalari loyihalarini kelishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

“O‘zatom” agentligi va uning idoraviy mansub tashkilotlari va mutaxassislarini stajirovkalardan o‘tish, malaka oshirish, xalqaro konferensiyalarda, biznes-forumlarda va boshqa tadbirlarda qatnashish uchun xorijiy mamlakatlarga belgilangan tartibda yuborish;

atom energetikasi sohasidagi yetakchi xorijiy mutaxassislarni “O‘zatom” agentligida va uning idoraviy mansub tashkilotlarida ishlash uchun shartnoma asosida, belgilangan tartibda jalb etish;

“O‘zatom” agentligi vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha xorijiy davlatlar, xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari bilan belgilangan tartibda muzokaralar o‘tkazish;

zaruriyat bo‘lganda, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun tegishli tarmoqlarda olimlar va mutaxassislardan vaqtinchalik ishchi guruhlar tuzish, ushbu ishlarga boshqa vazirliklar, idoralar va tashkilotlardan mutaxassislar va ekspertlarni shartnoma asosida jalb etish;

idoraviy mansub tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

ushbu Nizomda belgilangan maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish.

11. “O‘zatom” agentligi quyidagilar uchun javob beradi:

“O‘zatom” agentligiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi;

respublikada atom energetikasini rivojlantirish bo‘yicha oldindan chora-tadbirlar ko‘rilishi;

atom energetikasi bo‘yicha texnikaviy tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi yuzasidan tizimli nazoratning yuritilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi va kelgusida tizimli monitoring olib borilishini ta‘minlagan holda uzoq muddatli, o‘rta muddatli va har yilgi rivojlanish dasturlari ishlab chiqilishi;

atom energetikasi uchun yuqori malakali, oliy va o‘rta ma‘lumotli, professional bilimga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ushbu tarmoq xodimlari malakasini oshirish, shuningdek, ular mehnatini rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

“O‘zatom” agentligining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlariga erishish sohasidagi ishlarning samarali tashkil etilishi;

Vazirlar Mahkamasiga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti apparatiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar, shuningdek, “O‘zatom” agentligi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar loyihalarining sifati va yakuniy natijalari;

tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejaları, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishi.

4-bob. “O‘zatom” agentligi rahbarlarining asosiy funksional majburiyatlari

12. Quyidagilar “O‘zatom” agentligi bosh direktorining asosiy funksional majburiyatlari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi** va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlari talablariga rioya etish;

“O‘zatom” agentligi faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonun hujjatlarida “O‘zatom” agentligiga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

“O‘zatom” agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan konsepsiyalar, kompleks dasturlar va tadbirlarning bajarilishi yuzasidan chuqur va tanqidiy tahlilni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti apparatining xizmatlari va Vazirlar Mahkamasining komplekslari, shuningdek, tegishli vazirliklar va idoralar bilan “O‘zatom” agentligi faoliyati sohasiga kiradigan masalalar bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilish, Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarida masalalarni ko‘rib chiqishda qatnashish;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining va uning o‘rinbosarlarining shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining topshiriqlarini ijro etish;

(12-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

“O‘zatom” agentligi faoliyati ayrim uchastkalariga rahbarlik qilish yuzasidan “O‘zatom” agentligi mansabdor shaxslarining vakolatlarini aniqlash va ularning shaxsiy javobgarligi darajasini belgilash;

“O‘zatom” agentligi faoliyati rejalashtirilishini tashkil etish, “O‘zatom” agentligi va mansabdor shaxslarining har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta‘minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarini bajarishni tashkil etish ta‘sirchan tizimini yaratish va monitoringini yuritish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son qaroriga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq “O‘zatom” agentligi faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish;

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq “O‘zatom” agentligining qonun loyihalari bo‘yicha faoliyatini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 14-fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti (keyingi o‘rinlarda Vazirlar Mahkamasining Reglamenti deb ataladi) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3161-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti apparatining Reglamenti (keyingi o‘rinlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Apparati Reglamenti deb ataladi) talablariga qat‘iy muvofiq ravishda faoliyat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish va ularning Vazirlar Mahkamasiga o‘z vaqtida kiritilishini ta‘minlash;

“O‘zatom” agentligiga taqdim etilgan takliflarning va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining to‘liq va har tomonlama ko‘rib chiqilishini ta‘minlash, ularni moliyaviy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa xil ekspertizadan puxta o‘tkazilishini, shuningdek, ularning Vazirlar Mahkamasi Reglamentida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti apparatining Reglamentida belgilangan muddatlarda kelishilishini (vizalanishini) ta‘minlash;

“O‘zatom” agentligi xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

“O‘zatom” agentligiga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, “O‘zatom” agentligi kadrlar zaxirasini shakllantirish;

“O‘zatom” agentligi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etish;

“O‘zatom” agentligi faoliyatiga ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakllari joriy etilishini ta‘minlash;

davlat siriga kiritilgan ma‘lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to‘g‘risida” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “Mansabdor shaxslarning xorij mamlakatlariga xizmat safarlari samarasi uchun shaxsiy mas‘uliyatlarini yanada oshirish va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish choralari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlariga to‘liq muvofiq holda “O‘zatom” agentligi rahbarlari va xodimlarining xizmat safarlarini tashkil etish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, xizmat safarlari xarajatlariga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanilishini ta‘minlash;

“O‘zatom” agentligi xodimlari tomonidan “O‘zatom” agentligi xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta‘minlash;

huquqni qo‘llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** talablariga muvofiq “O‘zatom” agentligi tizimida korrupsiya va boshqa qoida buzilishlarining oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rish;

“O‘zatom” agentligi xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar qabul qilish va ko‘rsatmalar berish;

zarurat bo‘lgan taqdirda “O‘zatom” agentligining tashkiliy tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan cheklangan umumiy soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritish;

“O‘zatom” agentligining shtatlar ro‘yxatini belgilangan tartibda tasdiqlash;

“O‘zatom” agentligi xodimlarini ko‘rak nishonlari va faxriy yorliqlar bilan belgilangan tartibda mukofotlash to‘g‘risidagi masalalarni hal etish, “O‘zatom” agentligining alohida namuna ko‘rsatgan xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi faxriy unvonlari va davlat mukofotlari bilan taqdirlashga tavsiya etish;

“O‘zatom” agentligi xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etish, shu jumladan, ularning bundan buyon egallab turgan lavozimida qolishining maqsadga muvofiqligi, ularning shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli masalalarni ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston Respublikasining “**Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida**”, “**Qonunlar loyihalarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida**”gi qonunlariga muvofiq “O‘zatom” agentligining qonun loyihalari bo‘yicha faoliyatini tashkil etish;

“O‘zatom” agentligi mol-mulkini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etish.

13. Quyidagilar “O‘zatom” agentligi bosh direktori o‘rinbosarlarining va tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarining asosiy funksional majburiyatlari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga “O‘zatom” agentligi tarkibiy bo‘linmalari xodimlari tomonidan rioya etilishini ta‘minlash;

tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish, ushbu bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hujjatlari va topshiriqlarining ijrosini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son **qaroriga** hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son **qaroriga** muvofiq ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish, tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarligini oshirish choralari ko‘rish;

“O‘zatom” agentligi qarorlarining, bosh direktor buyruqlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash;

tarkibiy bo‘linmalar har choraklik ish rejaları ishlab chiqilishini ta‘minlash, ularni tasdiqlash uchun kiritish, ularda ko‘rsatilgan vazifa va tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash;

tarkibiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

tarkibiy bo‘linmalar faoliyati masalalari bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va ularni ko‘rib chiqish uchun “O‘zatom” agentligi rahbariyatiga kiritish;

“O‘zatom” agentligi tarkibiy bo‘linmalariga kadrlarni tanlash va tayinlashda bosh direktorga takliflar taqdim etish, tarkibiy bo‘linmalarga ishga qabul qilinayotgan kadrlarning professionalligi, o‘z ishini bilishi, amaliy ish tajribasi, yuqori ishchanlik darajasi va ma’naviy-axloqiy sifatлари kafolatlanganligini ta’minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish choralari ko‘rish, tarkibiy bo‘linmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

tarkibiy bo‘linmalarda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, keyinchalik ularni ko‘rib chiqish uchun “O‘zatom” agentligi tarkibiy bo‘linmalarida tayyorlangan hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqish va ularga viza qo‘yishni tashkil etish, ularni “O‘zatom” agentligi rahbariyati tomonidan imzolash (viza qo‘yish), ularning Vazirlar Mahkamasi **Reglamenti** va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti apparati **Reglamenti** talablariga qat’iy ravishda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlash;

“O‘zatom” agentligiga taqdim etilgan takliflarni va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o‘z vakolati doirasida to‘liq va har tomonlama ko‘rib chiqish, ularni moliyaviy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa ekspertizalardan puxta o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to‘g‘risida**” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “**Mansabdor shaxslarning xorij mamlakatlariga xizmat safarlari samarasi uchun shaxsiy mas’uliyatlarini yanada oshirish va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish choralari to‘g‘risida**” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlariga to‘liq muvofiq holda xizmat safarlarini tashkil etish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, xizmat safarlari xarajatlariga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanilishini ta’minlash;

“O‘zatom” agentligi tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining faoliyati samaradorligi va natijadorligini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, ularning shaxsiy hisobotlarini yig‘ilishlarda eshitish, yakunlari bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

“O‘zatom” agentligi xodimlari tomonidan xodimlarning axloq-odob qoidalari talablariga rioya etish;

huquqni qo‘llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** talablariga muvofiq “O‘zatom” agentligi tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiya va boshqa qoida buzilishlarining oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rish;

davlat siriga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish.

5-bob. “O‘zatom” agentligi rahbarlarining majburiyati

14. “O‘zatom” agentligining bosh direktori:

“O‘zatom” agentligiga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun;

“O‘zatom” agentligining ushbu Nizomning **11-bandida** nazarda tutilgan javobgarlik sohalari bo‘yicha;

ushbu Nizomning **12-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

15. “O‘zatom” agentligi bosh direktorining o‘rinbosarlari va tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari: tegishli tarkibiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi uchun;

ushbu Nizomning **13-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar.

6-bob. “O‘zatom” agentligi faoliyatini tashkil etish

1-§. Agentlik rahbariyati

16. “O‘zatom” agentligini O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan bosh direktor boshqaradi.

Bosh direktorning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini qarori bilan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosari bo‘ladi.

“O‘zatom” agentligi bosh direktori o‘z maqomiga ko‘ra vazirga, bosh direktorning birinchi o‘rinbosari — vazirning birinchi o‘rinbosariga, bosh direktorning o‘rinbosari esa — vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi.

“O‘zatom” agentligining bosh direktori va xodimlari mehnatiga haq to‘lash sharoitlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

17. “O‘zatom” agentligi bosh direktori:

“O‘zatom” agentligi yakka tartibdagi ijro organi hisoblanadi va uning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi;

“O‘zatom” agentligi faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va “O‘zatom” agentligiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

“O‘zatom” agentligi xodimlarining lavozim majburiyatlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

“O‘zatom” agentligi xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

o‘z vakolati doirasida “O‘zatom” agentligi xodimlarining bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi, ko‘rsatmalar beradi.

Bosh direktor qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Bosh direktor bo‘lmagan davrda uning vakolatlarini vazifalar taqisмотiga muvofiq direktor o‘rinbosarlari bajarishadi.

2-§. “O‘zatom” agentligining boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

18. “O‘zatom” agentligi o‘z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

(19-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 397-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.05.2019-y., 09/19/397/3123-son)

7-bob. “O‘zatom” agentligi faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlari

20. “O‘zatom” agentligi faoliyatining samaradorligi muntazam ravishda baholanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

21. “O‘zatom” agentligi faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri tasdiqlaydigan “O‘zatom” agentligi faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlari asosida amalga oshiriladi.

(21-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

22. “O‘zatom” agentligi faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlariga ko‘ra quyidagilar bo‘yicha choralar ko‘riladi:

“O‘zatom” agentligi rahbarlari va xodimlariga nisbatan rag‘batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlikning tegishli choralari ko‘rish;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va “O‘zatom” agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish.

23. “O‘zatom” agentligi faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi va metodikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

8-bob. “O‘zatom” agentligi faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta‘minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish

24. “O‘zatom” agentligi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan va qonun hujjatlariga muvofiq jalb etilgan budjetdan tashqari mablag‘lardan, shuningdek, Atom energetikasini rivojlantirish jamg‘armasidan (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) moliyalashtiriladi.

25. Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish Moliya vazirligi bilan kelishiladigan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

26. “O‘zatom” agentligi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

27. “O‘zatom” agentligi xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar, ustamalar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan rag‘batlantirish to‘lovlaridan iborat bo‘ladi.

28. “O‘zatom” agentligi xodimlariga quyidagilar uchun lavozim maoshiga koeffitsiyentlarda har oylik ustamalar to‘lanadi:

mehnatning alohida sharoitlari uchun — 1,7 miqdorida, u qonun hujjatlarida belgilangan rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha haq va ustamalarni hisoblashda lavozim maoshi tarkibiga kiritiladi;

uzoq muddat davomidagi uzluksiz ish staji uchun quyidagi miqdorlarda, rag‘batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda: 3 yildan 5 yilgacha — 0,05; 5 yildan 10 yilgacha — 0,1; 10 yildan 15 yilgacha — 0,15; 15 yildan 20 yilgacha — 0,2; 20 yildan ortiq — 0,25 miqdorida.

Ushbu bandda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan va “O‘zatom” agentligining Atom energetikasini rivojlantirish jamg‘armasidan teng ulushlarda amalga oshiriladi.

9-bob. “O‘zatom” agentligining hisobotdorligi

Oldingi tahrirga qarang.

29. “O‘zatom” agentligi bosh direktori “O‘zatom” agentligi faoliyatining natijalari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasini va Energetika vazirligi oldida muntazam ravishda hisobot beradi.

(29-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

Oldingi tahrirga qarang.

30. O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri “O‘zatom” agentligiga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi bo‘yicha doimiy faoliyat monitoringini amalga oshiradi, “O‘zatom” agentligi faoliyati samaradorligiga obyektiv baho beradi.

(30-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

31. Faoliyat monitoringi va bahosi yakunlariga ko‘ra “O‘zatom” agentligi mansabdor shaxslari va xodimlariga nisbatan yuklangan vazifalarni vijdonan va o‘z vaqtida bajarganlik uchun rag‘batlantirish yoxud yo‘l qo‘yilgan jiddiy kamchiliklar uchun egallab turgan lavozimidan bo‘shatishgacha bo‘lgan javobgarlik choralari ko‘riladi.

10-bob. Yakunlovchi qoida

32. “O‘zatom” agentligini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-avgustdagi 653-son qaroriga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan qo‘shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 7-oktabrdagi 336-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2016-y., 10-son, 89-modda) bilan tasdiqlangan Rahbarlari xodimlarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiska qilish to‘g‘risida iltimosnoma kiritishi mumkin bo‘lgan davlat

hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, respublika ahamiyatiga molik boshqa davlat tashkilotlari ro‘yxatiga quyidagi mazmundagi 64-band qo‘shilsin:

“64. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi”.

2. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 180-f-son farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida rasmiy delegatsiyalarga xizmat ko‘rsatish zali to‘g‘risidagi nizomda:

a) “Toshkent” aeroportining VIP zalida bepul xizmat ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan diplomatik missiyalarning mansabdor shaxslari va xodimlari toifalari ro‘yxatiga (1-ro‘yxat) quyidagi mazmundagi 6.4-kichik band qo‘shilsin:

“6.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori va uning o‘rinbosarlari”;

b) O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarining rasmiy delegatsiyalariga xizmat ko‘rsatish zalida bepul xizmat ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan diplomatik missiyalarning mansabdor shaxslari va xodimlari toifalari ro‘yxatiga (1-ro‘yxat) quyidagi mazmundagi 6.6-kichik band qo‘shilsin:

“6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi bosh direktori va uning o‘rinbosarlari”.

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018-y., 09/18/653/1703-son, 14.05.2019-y., 09/19/397/3123-son; 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son; 29.09.2020-y., 09/20/593/1340-son)